

Xorijiy tillarni o'rganishda o'qituvchining ahamiyati

Inomjonova Dilbarxon Anvarjon qizi

Tashkent davlat jahon tillar universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: IbrohimovaLobar Is'haqovna **Anotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning top 1000talikdagi universitetlar tajribasidan olingan bir nechta usullari, zamonaviy o'qitish uslubida o'qituvchilarning qay darajada muhimligi va ularning vazifalari, xorijiy tillarning bugungi hayotimizda qanchalik katta rol o'ynayotgani, zamonaviy texnologialardan dars jarayonida foydalanish zarurligi, o'quvchilarning fikrini mavzuga jalb qilish metodikalari yoritilgan.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda inson yasharkan, beixtiyor uning oqimi bo'ylab suzishga majbur bo'ladi, uning ijobiy ma'ndagi "talablar"ni qondirishiga to'g'ri keladi. Axborot-texnologiya asrining insonlar oldiga qo'yayotgan talablaridan biri zamonaviy texnika-texnologiyalarni qo'llay bilish ko'nikmasiga ega bo'lish bo'lsa, boshqa yana bir talabi bir nechta chet tillarini bilish, bu tillarda erkin so'zlasha olish malakasiga ega bo'lishdir. Vatanimiz O'zbekistonda ham chet tillarini rivojlantirishga, yosglarni chet tillariga qiziqtirishga katta e'tabor berilmoqda. Tabir joizki, nafat O'zbekistonda balki butun dunyo miqyosida ham ikki va undan ortiq xorij tillarida erkin so'zlasha oladigan kadrlar qadrlanmoqda. Bu fikrga dalil sifatida ushbu vaziyatni keltirish mumkin: agar bir shifokor o'zining mutaxassisligi tibbiy bilimlariga qo'shimcha holda rus, ingliz, german yoki hind tilini bilsa, shu shifokor O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy mehmonlarni hech qanday anglashilmovchiliksiz davolashi mumkin yoki shu tilde so'zlashuvchi davlatlarga chiqib xalqaro tajribani va tibbiy texnologiyalarni O'zbekistonga olib kirib vatanimiz yuksalishi yo'lidagi zinalarga o'zinining hisssini qo'shishi mumkin. Shu o'rinda takidlab o'tishimiz lozimki, chet tillarini o'rganish va uni ommalashtirish to'g'risida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning qarorlari soha rivoji yo'lida beqiyos o'rin tutadiki qaror quyida keltirildi:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi boshqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasini qarori:

Ushbu qarorning :

1- bandi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi hama agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil

etilsin.

2- bandi:Agelik va uning vakillariO'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi chet tillarini o'itishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-ommaviy mrkazining 34ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi va oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilgani ma'lumot ucun qabul qilinsin.

Va shu kabi yana ko'plab qaror ijrosini ta'minlash uchun qo'shimcha topshiriqlar belgilab berildi . Davlat rahbarimiz qarorlarida aytganlaridek o' qitish tizimiga katta e'tabor qaratilmoqda. Til o'rganishda dars jarayonlarini tashkil etishda o'qituvchini ahamiyati beqiyos albatta. Zamonizda “self study” tushunchasi tobora keng ommalashib bormoqda, shubhasiz “ o'zi o'qish” juda yaxshi biroq dono xalqmiz aytgani kabi ” Ustoz ko'rmagan shogirt har maqomga yo'rg'alar” Shu bilan bir qatorda zamonamizning zukko va tez firqli yoshlarining e'tiborini darsga jalb qilish pedagoglardan katta mas'uliyat va zamon bilan ham nafas bo'lishni talab qilmoqda. Dars davomida media vositalari: video, masterclass, zamonaviy o'yinlar(bolalar uchun),elektron doskalardan foydalanish til o'rganuvchilarning tezroq va osonroq o'zlashtirishlari uchun yordam bermoqda. Xorijiy universitetlarning o'qitish usullariga nazar tashlasak STATFORD instituti o'tish usullari orqali ko'rishimiz mumkin. Ushbu o'rganilgan bilimlarni o'rganuvchining hayotda qo'llashini birinchi o'rinda yo'lga qo'gan metodi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi usul:til o'rganuvchining vaqitiga qarab “ moslashuvchan dars jadvali”, ya'ni o'quvchi o'ziga qulay paytdagi darslarda qatnashishi mumkin.Bundan tashqari xorijiy tillarni o'rganish insonni psixologik jihatdan ham rivojlanishiga ko'maklashadi. O'rganuvchi chet tilini o'rganish uchun shu tildagi videolar, kinolar ko'rayotganida yoki tub aholisi bilan gapshlashayotganda bir so'zni noto'g'ri tushunmslik uchun butun diqqatini qaratadi va bu jarayon butun shu tilni o'rganish jarayonida davom etadi va ushbu shaxs o'zi sezmaganda holda diqqatini yaxshi jamlash mahoratini ham til bilan birga ozida shakllantirgan bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,ustozlarning o'rni til o'rganish jarayonida tengsizdir. Qayerda o'rgatilmasin O'zbekistondami yoki xorijda buni ahamiyati yo' q baribir ustozsiz o'zlashtirish qiyin bo'ladi. Inson o'zi qilgan xatolarni ko'ra olmaydi , albatta bu til o'rganisg jarayonida ham bo'ladi, ustoz esa o'quvchisining xatolarini to'g'rilaydi, o'zlashtirish qiyin bo'lgan paytlarda ruhlantirib unga dalda beradi. Inson psixologiyasidagi oddiygina shu misol o'qituvchi naqar insonga kerak ekanligini ko'rsatadi.Shuni ham takidlash lozimki, ustozga nafaqat chet tillarini o'qitishda,balki hayotning har bir jabhasida ularning maslahati, tajribasiga “suyanish” shubhasiz foydalidir.

REFERENCES

1. Muhammad Xodjiyev,Mavluda qahhorova. Chet tili o'qitish metodikasi.-T.:”Fan

va texnologiya”,2021,148-bet

2. Xorijiy tillarni o'qitishning psixologik xususiyatlari. Filologiya2 Majmua

3.STRATFORD CAREER INSITUTE official website

5. www.scientificprogress.uz ,”Chet tillarini o'qitishda o'qituvchini roli” maqola Osiyo yormuhammad qizi Shukurova , 149-153 betlar.

3. Paluanova, X. D. Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages. DSc. Diss. dissertation. Tashkent, 2016.

4. Paluanova, H. "Reading comprehension and its development in teaching foreign languages." Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения 50-2 (2016): 67-71.